

Umrjonov Somonjon Shavkat o‘g‘li
Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi
2-bosqich o‘quvchisi

Annotatsiya: Jamiyay rivojlanib taraqqiy etib brogan sari yangidan-yangi islohotlar amalga oshaveradi. Ta‘lim tizimidagi islohotlar shular jumlasiga kiradi. Albatta bunday islohotlarni amalga oshirishda mamlakat qonunlari asosiy rol o‘ynaydi. Quyida shu mavzu yoritilgan.

Kalit so‘z: Konstitutsiya, qonun, huquqiy-me‘yoriy hujjat, qaror, farmon.

2023-yilning asosiy ijtomiy-siyosiy voqealigi shubhasiz bu 30-aprel sanasida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyaga oid referendum.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish masalasida takliflar so‘ralganda 222 715 ta takliflar maxsus komissiyaga kelib tushgan bo‘lin ularning 25 foizi yangi Konstitutsiya loyihasiga kiritilgan.

Konstitutsiyamiz belgilab berilgan tamoyil va qoidalar, uzoqni ko‘zlagan maqsad va vazifalar, chuqur o‘ylangan taraqqiyot strategiyasi va barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beradigan, O‘zbekistonning rivojlanishi uchun omil bo‘la olgan hujjatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi boshqa sohalar kabi ta‘limga ham keng yo‘l ochib beradi. Konstitutsiyaning 41-moddasi – Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

Yangi Konstitutsiya loyihasiga ta‘limga oid moddalar ham kiritilgan bo‘lib ular oldingi moddalardan tubdan farq qilish bilan bir qatorda ko‘pchilik O‘zbekiston fuqarolarini xursand qilgan jihat bu o‘qituvcha va murabbiylarni sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilinishini nazarda tutgan moddaning mavjudligi. 50-modda. Har kim ta‘lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta‘lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlari rivojlanishini ta‘minlaydi. Davlat maktabgacha ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o‘rta ta‘lim va boshlang‘ich professional ta‘lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta‘lim majburiydir. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta‘lim davlat nazoratidadir. Ta‘lim tashkilotlarida alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim va tarbiya ta‘minlanadi. 51-modda.

Fuqarolar davlat ta‘lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma‘lumot olishga haqli. Oliy ta‘lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega. 52-modda. O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish,

sogʻlom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning maʼnaviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida eʼtirof etiladi. Davlat oʻqituvchilarning shaʼni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan oʻsishi toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik qiladi.

Uumumiy oʻrta taʼlim bepul boʻlgan dunyodagi kam sonli davlatlardan biridir. Bu esa jamiyatda savodli aholi qatlamini koʻpaytirish uchun xizmat qiladi. Shu sababli Oʻzbekiston aholi savodliligi boʻyicha dunyoda yetakchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Shunday ekan ustoz va murabbiylarning davlat tomonidan homoya qilinishi hozirgi oʻzgaruvchan dunyoda eng muhim omil deb hissoblyman.

Hozirgi kungacha xalq taʼlimiga oid 87 ta, professional taʼlimga oid 16 ta va oliy taʼlimga oid 336 ta qonun hujjatlari qabul qilingan.

Bundan tashqari har bir qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarda ham taʼlim sohasiga urgʻu beriladi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilib hayotga tatbiq etilgan, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “2017-2021-yillarda “Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha” harakatlar strategiyasi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmonlari buning yaqqol misoli boʻla oladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yangi Oʻzbekistonni qurish haqida gap ketganda inson omili, xususan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va eʼtiborga koʻp toʻxtalib oʻtadi, insonlar ongi va tafakkuridagi tub oʻzgarishlarni alohida taʼkidlash zarurligini, ularning tevarak-atrofdagi sodir boʻlayotgan voqealarga munosabati, ularga daxldorlik tuygʻusining oʻsishi, siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishi jamiyatimiz rivojlanishidagi muhim omil boʻlib, konstitutsiyamiz imkon bergan inson huquqlari va erkinliklari hamda manfaatleri mahsuli hisoblanadi.

Amaliyot shuni koʻrsatdiki, mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarini isloh qilish va demokratlashtirish jarayoni Konstitutsiyamizning barcha tamoyillari va qoidalarini hayotga tatbiq etishni oʻzining asosiy maqsadi qilib qoʻygan uzluksiz davom etadigan jarayondir, bu esa yurtimizning yanada gullab-yashnashiga, uning suvereniteti va mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi aholini kasb-hunarga tayyorlash va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yigʻilishida professional taʼlimni yanada isloh qilish va uni reytingini oshirish masalalarida davlat rahbari bir qator takliflarni ilgari surdilar. Prezidentimizning ushbu takliflari hayotga tatbiq etilsa professional taʼlim tizimimiz jahon andozasi darajasiga koʻtariladi.

Jamiyatimiz rivojida muhim omil boʻlib xizmat qilayotgan va konstitutsiyamiz tamoyillariga toʻliq mos keladigan islohotlar davom etmoqda. Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda yangi renessansga yetishamiz. 2023-yilning 30-aprelida referendum

muvoffaqiyatli o‘tib yangi Konstitutsiya hayotga tatbiq etilsa albatta rennesansga yetishish yo‘limiz qisqaradi deb o‘ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020-yildagi 824-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasida “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 8.10.2019 y. PF-5847-son <https://lex.uz/ru/docs>
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent, 2019, O‘zbekiston NMIU.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020.